

**O'ZBEKISTONDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA EKOLOGIK SIYOSAT****Jumayev Abdimo'min Fayziyevich  
Amirqulova Feruza Muzaffar qizi****Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qtuvchisi va talabasi.****E-mail: [abdumo'minjumayev 71 @gmail.com](mailto:abdumo'minjumayev71@gmail.com)****[amirqulovaferuza10@gmail.com](mailto:amirqulovaferuza10@gmail.com)****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10250131>**

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan "2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" ayniqsa, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlarining faoliyatini yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

**Kirish:** Ekologiya – yunoncha so'z bo'lib, –oykos–uy va –logos–fan, ta'limot degan ma'nolarni anglatadi. Bu atamani 1866-yilda nemis biolog-darvinist olim Ernest Gekkel –"Organizmlar morfologiyasining umumiy printsiplari" asarida izohlab bergan edi. E.Gekkel –umumiy ekologiyani tirik organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqalarini va ta'sirini o'rganadigan fan-deb, ta'riflagan edi. Umumiy ekologiya–biologiya fanining bir bo'lagi bo'lsa-da, ammo botanika, zoologiya nisbatan yangi fan bo'lib, u XX asrning boshlarida rivojlana boshladi. E'tirof etish kerakki, tabiat hodisalariga oid tushuncha va ta'limotlar takomillashib, evolyutsion tarzda rivojlanib borishi, inson bilan tabiat o'rtasidagi bog'liqlik IX-XII asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Farobiy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Abdulloh Jayhoni, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi alloma-bobokalonlarimiz asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Barchamizga ma'lumki hozirda ekologiyaga ko'plab zaxarli moddalar chiqindilar chiqarilmoqda bu esa yer kurrasini salbiy oqibatlariga olib kelyapti. Birgina Toshkent shahri 2023-yil 17-oktarda oqshomida atmosfera havosining iflosligi bo'yicha IQAir reytinggida Dehlini ortda qoldirib 1- o'rniga chiqib olganligidan habarimiz bor albatta.

**Asosiy qism.** Ekologik muammolarni hal etish, fan va texnikaning barcha sohalarida ulkan mehnatni talab qiladi. Barcha ekologik faoliyatning nazariy asosi ekologiya fanidir. Faqat tabiiy, texnogen va ijtimoiy jarayonlar rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlarini bilish tabiat bilan uyg'unlashishga va ijtimoiy nizolarni hal qilishga imkon beradi. Ilmiy asoslanmagan atrof-muhit chora-tadbirlari foydasiz va ba'zan zararlidir. Ularni ham ekologik, ham iqtisodiy jihatdan, amalga oshirish tabiat va inson salomatligini himoya qilish xayolotini keltirib chiqaradi, holos. Ekologik muammolar universaldir, chunki biosfera davlat chegaralarini tan olmaydi. Insonning umumiy muammolari ham universal vazifalarni keltirib chiqarmoqda<sup>1</sup>. Fan-texnikaning rivojlanishi jamiyatga misli ko'rilmagan yutuqlar keltirish bilan bir qatorda, jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashishiga, ekologik holatning yomonlashishiga, tabiiy resurslarning isrof bo'lishiga, suv, havo, tuproqning ifloslanishiga, zaharlanishiga, o'simlik va hayvonlarning kamayib ketishiga, katta-kichik ekotizimlarning, ularning biotik birliklari bo'gan moddalarning parchalanishiga, buzilishiga olib keldi. Yer yuzining turli mintaqalarida vujudga kelgan ekologik muammolar "Ekologik tanglik", hattoki,

<sup>1</sup> 1 ЭКОЛОГИЯ: Учебник для технических вузов / Л. И. Цветкова, М. И. Алексеев и др.; Под ред. Л. И. Цветковой. - М.: Изд-во АСВ, СПб.: Химиздат, 2001. - 552 с.

“Ekologik halokat” kabi tushunchalarni keltirib chiqardi. Shu o`rinda Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 21-aprel kungi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to`g`risida” gi PF-5024 sonli farmoni, shu kungi “O`zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo`mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi PQ-2915 sonli qarorini ta`minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori va Vazirlar Mahkamasining 2017 -yil 23-maydagi 310-son qaroriga muvofiq O`zbekiston Respublikasi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo`mitasi to`g`risida Nizom”<sup>2</sup> i yuqorida aytib o`tilgan masalalarni yechim topishida ahamiyati katta ekanligini aytib o`tishimiz joyizdir. Hozirgi globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur`atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangi yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro`yobga chiqarishni taqazo etmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o`z –Murojaatnomasi”(2017 yil)da Orol va Orolbo`yi muammolariga to`xtalib, “Orolbo`yida ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan aniq choralar ko`rilib, Moliya vazirligi huzurida Orolbo`yi mintaqasini rivojlantirish jamg`armasi tuzilganligi va unga 200 milliard so`mdan ortiq mablag` yo`naltirilganligi, ana shu mablag`lar hisobidan Qoraqalpog`iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisining suv ta`minoti, turmush sharoiti yaxshilanayotganini<sup>3</sup> qayd etish o`rinlidir. Shuningdek, ko`rilayotgan chora-tadbirlar hozirgi kun uchun yetarlicha emasligi, ekologik xavfsizlik, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish doimo e`tiborimiz markazida turishi zarur ekanligini ta`kidladi. Prezidentimiz o`z nutqlarida: –Suv xo`jaligi vazirligi 2019 yil davomida mintaqadagi davlatlar ekspertlari bilan birgalikda Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish bo`yicha takliflarni ishlab chiqishi lozim ekanligi, hozirgi vaqtda Orol fojiasi tufayli 5,5 million gektardan ortiq maydonda Orolqum sahrosi paydo bo`lib, buning natijasida, har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko`tarilayotgani, bu esa Orol halokatining –Global muammo ekanini yana bir bor isbotlayotganligi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Orolbo`yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo`yicha ko`p tomonlama sheriklik asosida –Trast fondining tuzilishi o`zbek diplomatiyasining katta yutug`i bo`lganligi, biz O`zbekiston tashabbusini qo`llab-quvvatlagani uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antonio Guterrish hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti institutlaridan, hamkor davlatlardan minnatdormiz, Orol dengizining suvsiz qolgan hududida yashil o`rmonlar barpo etishga alohida e`tibor bermoqdamiz. Agar mustaqillik yillarida O`zbekiston bo`yicha 1 million 220 ming gektarga yaqin o`rmonzor yaratilgan bo`lsa, shundan 400 ming gektardan ortig`i aynan Orolbo`yi hududida barpo etilgan. Bu masalada qabul qilinayotgan maxsus dasturga ko`ra, Orol dengizining suvsiz hududida kelgusi yilda yana 500 ming gektar o`rmonzor barpo etiladi<sup>4</sup>– deb ta`kidladi. O`zbekistonda ekologik muammolar: Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko`rsatayotgan ta`siri bilan bog`liq holda, tabiatning insonga aks ta`siri, ya`ni uning hayotida, iqtisodiyotida, umuman olganda xo`jalik ahamiyatiga molik bo`lgan jarayonlarda, tabiiy hodisalar bilan bog`liq har qanday hodisa tushuniladi. Masalan, iqlimning o`zgarishi yoki suv toshqini natijasida paydo bo`ladigan muammolar, ishlab chiqarish korxonalarida vujudga

<sup>2</sup>Ekologiyaxabarnomasi. № 5 (193) 2017.

<sup>3</sup>O`zbekistonRespublikasiPrezidentiShavkatMirziyoyevningOliyMajlisgaMurojaatnomasi. 22 dekabr 2017 yil.

<sup>4</sup>O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil28-dekabr

keladigan ba'zi bir favqulodda vaziyatlar va hodisalar, ba'zi bir hayvon turlarining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib borishi va hokazolar, ekologik muammo bo'la oladi. Ekologik muammolarni ko'lam va dolzarbligiga qarab 3 guruhga ajratish mumkin. **Umumbashariy (global)** ekologik muammolar. Bu guruhga ozon qatlamining siyraklanishi, –Atmosferaning dimiqishi, chuchuk suv muammolari misol misol qilib keltirsak bo'ladi. **Mintaqaviy (regional)** ekologik muammolar. Bu guruhga Orol dengizining qurib borishi, Arnasoy ko'llari atrofidagi ekologik muammolar, Sarez ko'li muammosi va boshqalar. **Mahalliy (lokal)** ekologik muammolar. Bu guruhga sanoat korxonalarini joylashgan mintaqalarda (masalan, Navoiy, Angren, Olmaliq, Chirchiq va b.) tabiatni muhofaza qilish muammolari, suv tanqisligi muammolari, chiqindilar, pestitsidlar, gerbitsidlar va boshqa kimyoviy moddalar bilan bog'liq agrosanoat ekologik muammolari aytishimiz mumkin. Butun dunyodagi insonlarni bezovta qilayotgan "ozon tuynugi" tabiatni asrashda eng global muammolardan biridir. Ozon qatlami qalinligi 3-5 mm va yerdan 17 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, odamlarni quyoshdan keladigan ultrabinafsha nurlardan himoya qiladi. Quyoshdan keladigan nurlar to'g'ridan-to'g'ri o'tib kelsa, barcha tirik organizmlarni halok etadi. Ozon qatlami inson uchun nozik qalqon bo'lib kelgan, ammo keyingi paytda aqlli inson tomonidan texnogen omillarning rivojlanib borishi natijasida nozik qalqonda teshik paydo qilindi. "Antropogen ta'sirida atmosferaga katta miqdorda ftorli, xlorli gazlar, freonlar va (NO<sub>2</sub>) azod oksidlari tashlanadi. Hozirgi kunda ozon teshigi Antarktidaning kichikroq maydonida va Arktikada hosil bo'ldi. Shuningdek, katta shaharlar ustidagi ozon qatlami ham kun sayin yupqalashib bormoqda"<sup>5</sup> «Inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda. Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko'p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkoniyatini beradi»<sup>6</sup> . Mamlakatimizdagi ekologik xavfsizlik siyosati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, atrof-muhit va barqaror rivojlanishga oid qonunchilik hamda Yoxannesburg Deklaratsiyalari va Parij konferensiyalari tamoyillari asosida olib borilib, ijtimoiy va ekologik yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti orqali huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda. Biroq istiqbolda respublikamiz hududida quyidagi ekologik muammolar o'z echimini kutib qolmoqda: Orol dengizining qurishi tufayli kelib chiqqan ekologik vaziyat; ko'p yillik paxta yakkahokimligi, ma'danli o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini me'yoridan ortiq ishlatish, flora va faunaning degradatsiyasi tufayli vujudga kelgan tuproq va suv resurslari sifatining qoniqarsizligi; tuproq, suv, biologik resurslar va atmosfera havosi sifatiga antropogen, ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishi ta'sirining kuchayishi; sanoat va maishiy chiqindilarni to'plash, tashish va qayta ishlash tizimining qoniqarsizligi; atrof-muhit holati va uni ifloslantirish manbalari axborot monitoringining texnik va metodik ta'minoti rivojlanmaganligi va shu kabilar.

**Xulosa.** O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi

<sup>5</sup> Odum E.P., 1980a Radiation ecology at Oak Rider/ In – Environmental Sciences Laboratory Dedication, Oak Ridge, Teen., Oak Rige National Laboratoru, pop. 53-57.

<sup>6</sup> Mirziyoev Sh.M. "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil. Toshkent.

huzurida Bioxilma-xillik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ularning foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining markaziy apparati tuzilmasi hamda uning hududiy inspeksiyalari faoliyat olib boradi. Ushbu qo'mita Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalarida chiqindilarning hosil bo'lishi, to'planishi, saqlanishi, tashilishi, utilizatsiya qilinishi, qayta ishlanishi, ko'milishi va realizatsiyasini nazorat qilib boradi. Qarorda chiqindilarning hosil bo'lishi, to'planishi, saqlanishi, tashilishi, utilizatsiya qilinishi, qayta ishlanishi, ko'milishi va realizatsiyasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan: davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, obodonlashtirish boshqarmalarining shahar va tumanlardagi ixtisoslashtirilgan sanitariya tozalash tashkilotlari, "Toza hudud" va "Maxsustrans" davlat unitar korxonalarini, shuningdek, chiqindilar bilan bog'liq sohadagi qonun hujjatlariga rioya etish bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish qilinishi ustidan nazoratni tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Kosntitutsiyasi 49-moddasi: Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi. Biz barchamiz komstitutsiyaga va ekologiya oid qonun qoidalarga amal qilsak albatta atrof muhitimiz avvalo ekologiyamiz toza bo'ladi.

### References:

1. Q.X.Muftaydinov, H.M.Qodirov, E.Yu.Yulchiyev-Ekologiya. Toshkent 2020 yil. 19-22-24-betlar.
2. D.YO. YORMATOVA, X.S.XUSHVAQTOV-EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH. 8-9-10-12-14-betlar.
3. O.A. Kamalov, O.J. Xolmuminov. – EKOLOGIYA HUQUQI. O'zbekiston Respublikasi
4. Ichki Ishlar Akademiyasi, 2014. 15-16-20-betlar.
5. O'zbekiston Respublikasi Kosntitutsiyasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentihuzuridagi Amaldagi qonun hujjatlarimonitoringi instituti bo'lim boshlig'i, yu.f.n., dotsent, Dj.Safarov ma'ruzasi.